

INKLYUZIV TA'LIMNING PEDAGOGIK, PSIXOLOGIK VA IJTIMOIIY JIHATLARI

Qambarova Nasiba Qambarovna

Profi University o'qituvchisi

Ismoilova Sevinch Bahodir qizi

Profi University Pedagogika va psixologiya yo'nalishi

4-kurs talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni, uning asosiy tamoyillari hamda dialog, tahlil, amaliy tajriba orqali samaradorligini oshirish masalalari yuritilgan. Maqolada mahalliy va xalqaro tajribalar asosida inklyuziv yondashuvning amaliy natijalari ko'rsatilib, maxsus extiyojli bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratishning ahamiyati takidlanadi.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, anomal bolalar, integratsiyalashtirish, zamonaviy ta'lim, tamoyil, maqsad, sensor xonalar, tolerantlik.

Аннотация: В статье рассматривается роль инклюзивного образования в современной системе образования, его основные принципы и вопросы повышения его эффективности посредством диалога, анализа и практического опыта. В статье представлены практические результаты инклюзивного подхода, основанные на отечественном и международном опыте, и подчёркивается важность создания равных возможностей для детей с особыми потребностями.

Ключевые слова: инклюзивное образование, аномальные дети, интеграция, современное образование, принцип, цель, сенсорные комнаты, толерантность.

Abstract: This article discusses the role of inclusive education in the modern education system, its basic principles, and issues of increasing its effectiveness through dialogue, analysis, and practical experience. The article presents the practical results of the inclusive approach based on local and international experience and emphasizes the importance of creating equal opportunities for children with special needs.

Keywords: Inclusive education, anomalous children, integration, modern education, principle, goal, sensory rooms, tolerance.

Zamonaviy ta'lim tizimida inklyuzivlik tushunchasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Inklyuziv ta'lim- bu jismoniy, ruhiy, aqliy yoki ijtimoiy farqlarga ega bo'lgan barcha bolalarning bir xil sharoitda ta'lim olishini ta'minlaydigan tizimdir. Respublikamizda ayni vaqtda aralash inklyuziv ta'limga ixtisoslashgan guruh va sinflarda imkoniyati cheklangan 3000 ga yaqin bolalar tehsil olmoqda. Loyiha ilk yo'lga qo'yilgan 2007-yilda ularning soni 47 nafar edi. (1) BMT tomonidan 1948-



yilda qabul qilingan “Inson huquqlari Deklaratsiyasi” barcha insonlarning huquq va erkinliklarini kafolatlar ekan, bu deklaratsiyaning barcha bandlari maxsus extiyojli insonlarga ham tegishliligi aniqlandi. Maxsus tarbiyaga muxtoj shaxslarning huquqlarini yanada mustahkamlash va kafolatlash maqsadida BMT 1975-yilda “Maxsus tarbiyaga muxtoj shaxslar huquqlari to’g’risida”gi Deklaratsiya qabul qildi.

Birinchi inklyuziv ta’lim masalalari 1980-1990-yillarda Rossiyada paydo bo’ldi. Moskvada terapevtik pedagogika markazi va ota-onalar jamoat tashkiloti tashabbusi bilan ARK inklyuziv ta’limning birinchi maktabi ochildi. “Inklyuziya” tushunchasi zamonaviy ta’lim siyosatiga Madlen Well honimning ta’lim siyosatidagi ishlari asosida kiritilgan. (2)

Bizga ma’lumki tizimni joriy etishda ma’lum qonun qoidalarga, tamoyillarga tayanish talab etiladi. Inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilishda esa quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Inklyuziv ta’limning e’tirof etilishi.
2. Inklyuziv ta’limning barcha uhun ochiq bo’lishi.
3. Bog’lanishning mavjud bo’lishi.
4. Markazlashtirilmagan bo’lishi.
5. Kompleks yondashuv.
6. Moslashuvchanlik.
7. Malakaviylik.

Maxsus tarbiyaga muxtojlarini umumta’lim tizimida o’qitish masalalariga e’tibor berish Respublikamizda 1996-yilda O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim vazirligi, Respublika ta’lim markazi va UNESCO tashkiloti bilan hamkorlikda respublika seminari o’tkazilishi bilan islohotlar amalga oshirila boshladi. (3) O’zbekistonda integratsiyalashgan inklyuziv ta’lim tizimini amaliyotga tadbqiq qilish maqsadida UNESCO xalqaro tashkiloti loyihasi asosida bir necha bor Respublika miqyosida seminar-treninglar va xalqaro konferensiya, forumlar o’tkazishga muyassar bo’ldi.

Konferensiyada ko’tarilgan dolzarb muammolar “Alohida yordamga muxtoj bolalarni ma’naviy va estetik rivojlantirish”, “Inklyuziv ta’lim va bolalarni ijtimoiy qo’llab quvvatlashning zamonaviy tendensiyalari” kabi turli to’plamlarda chop etildi. (4)

Inklyuziv ta’lim – bu umumta’lim maktablarda sog’lom o’quvchilar bilan alohida ta’limga extiyoji bo’lgan bolalarni birga uyg’unlashgan tarzda o’qitish jarayonidir. Inklyuziv ta’lim bolalarga nisbatan har qanday kamsitishni istisno qiluvchi, barchaga teng munosabatda bo’lishni ta’minlovchi hamda alohida ta’limga ehtiyojli bolalar uchun alohida shart-sharoitlar yaratuvchi ta’limdir. Tajribalar shuni ko’rsatadiki inklyuziv sinflardagi ba’zi sog’lom bolalarning ota-onalari o’z farzandlarini alohida ta’limga extiyojli o’quvchilar bilan birga ta’lim olishini istamay, boshqa sinf yoki maktabga olib ketishi kuzatildi. Biz shuni tushunishimiz kerakki, bolalar ular bilan birga ta’lim olib muvaffaqiyatsizlikka uchramaydi, balki bolalar o’rtasida do’stona



muhit yaratiladi, kamsitmaslik, bag'rikenglik va bir-biriga yordam berish hissini uyg'otadi. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadlaridan biri ham:

- Ta'lim jarayonida samarali pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini tashkil etish.

- Alohida ta'limga extiyoji bo'lgan bolalarni moslashtirish , tuzatish va ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini oshirish.

- Yosh avlod ongida tolerantlik munosabatlarini oshirish demakdir.

Inklyuziv ta'limning asosiy vositalaridan biri bu - dialog.

Dialog orqali o'qituvchi , o'quvchi va ota-onalar o'rtasida samarali aloqa o'rnatiladi. Inklyuziv sinflarda o'qituvchining individual yondashuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'quvchi bilan doimiy muloqot ularning qiyinchiliklarini tushunishga , o'quv jarayoniga bo'lgan ishonchini oshirishga, motivatsiyani kuchaytirishga yordam beradi. Bizga ma'lumki bugungi kunda respublikamizda ko'plab maktab va bog'chalarda inklyuziv guruhlar tashkil etilmoqda. Ularda eshitishda yoki ko'rishda nuqsoni bor bolalar uchun maxsus qurilmalar, psixologik xizmatlar , korreksion mashg'ulotlar yo'lga qo'yilgan.

Misol tariqasida Toshkent yoki viloyatlarning ayrim ta'lim muassasalarida autism spektridagi farzandlar uchun sensor xonalar tashkil etilgani yaxshi natija bermoqda.(5)

Xulosa

Inklyuziv ta'lim nafaqat bir guruh bolalar uchun, balki butun jamiyat uchun foydali bo'lgan yondashuvdir. Dialog orqali o'zaro tushunish , tahlil orqali muammolarni aniqlash, tajriba orqali esa amaliy yechimlarni takomillashtirish mumkin. Agar ta'lim jarayoni to'g'ri yo'lga qo'yilsa , har bir o'quvchi o'z imkoniyatlarini keng namoyon qila oladi. Inklyuziv ta'lim – kelajak uchun poydevor , bag'rikeng va kuchli jamiyat qurishning muhim sharti hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. I.Madatov."Inklyuziv ta'lim" Darslik-T 2024
2. R.Sh.Shomaxmudov " Maxsus va inklyuziv ta'lim xalqaro va milliy tajribalar"-o'quv uslubiy qo'llanma..
3. O'zbekiston Respublikasi qonuni " Maxsus tarbiyaga muhtojligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida" 2020-yil 15-oktyabr O'RQ-641 son.
4. "Inklyuziv ta'lim"ga oid seminar hujjatlar.
5. Internet manbalar.